

QUTQARUV XIZMATLARI VA SHTATDAN TASHQARI QUTQARUV TUZILMALARINI TASHKIL ETISH HAMDA QO'LLASH TARTIBI

Dadabayeva Naziraxon Abdurazaqovna

Andjon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchi

Telefon: 93 444-13-66

Annotatsiya: *Hozirgi kunning yeng muhim va zifalaridan biri tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularning oqibatlarine barataraf etishdir . Maqolada turli xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ular sodir bolganda oqibatlarini baratarf etish maqsadida iqtisodiyot ob'ektlarida va mulkchilik shakltdn qat'iy nazar barcha tashkilot va korxonalarda Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tuzish maqsadga muvofiqligi haqida soz yuritiladi.*

Kalit sozlar. *Qutqaruv tuzimlari, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar, radiatsiyaiy avariylar, nurlanish, zaharlanish, THQ RKTМ (Tez harakat qilish respublika kop tarmoqli markaz).*

Tabiiy jarayonlarning keskinlashuvi natijasida ba'zi odamlar kutilmagan xavf-xatarlarga duch kelmoqdalar. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining yaratilish mohiyati respublikamiz hududlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lish ehtimoli yuqori ekanligidadir.

Har qancha oldini olinishiga qaramasdan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lib turar ekan, ularni bartaraf etish uchun ma'lum kuch va vositalar zarur bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyatning turi, xususiyatiga muvofiq maxsus kuchlar jalb qilinadi.

Vazirlik tizimidagi barcha kuch va vositalar ana shu vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda qutqarish va kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni olib borish ishlariga yo_naltirilgan. Tez harakat qilish respublika ko'p tarmoqli markaz (THQRKTМ) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining togridan-togri bo'ysinuvchi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

THQRKTМ 1989 yilda tashkil qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Favqulodda vaziyatlar komissiyasiga qarashli bo'lgan. 1996 yil mart oyidan Favqulodda vaziyatlar vazirligining ajralmas bo'gini hisoblanib kelmoqda. THQRKTМning asosiy vazifalari respublikamizning hududlarida yuzaga kelgan avariylar, talofat, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularda avriya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv ishlarini samarali va tezkorlik bilan olib borish, kuch va vositalarni doimiy jangovor holatini ta'minlash, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda yoki bunday xavf mavjud bo'lganda vazirlik, idora, maxsus xizmatlar, yongin xavfsizligi, tez tibbiy yordam xizmatlari bilan hamkorlikda xizmat qilishdan iborat. Bundan tashqari, markazning faoliyati respublika

hududidagi terroristic qo'poruvchilik xurujlari natijasida o'ta muhim va toifalangan, kimyoviy, yong'in va portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlarda hamda jamoat maskanlarida, togli sharoit hududlarida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Dastlabki yillarda aholi uchun Qutqaruv xizmati yangilik bo'lganligi sababli yil mobaynida kam murojaat tushgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan aholining Qutqaruv xizmatining beminnat xizmatiga murojaatlari soni o'sishi va natijada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatli hodisalarning oldi olinayotganligi quvonarli holdir.

O'tgan yillar mobaynida Qutqaruv xizmati (1050) telefoni orqali murojaatlari tahliliga o'tsak, maslahat so'rab tashkilotlar va muassasalardan minglab murojaatlar kelib tushgan.

Qayd etilgan murojaatlardan aksariyati insonlar hayoti uchun xavfli bo'lgan va yirik miqyosdagi favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan chaqiruvlarga binoan Qutqaruv xizmati qutqaruvchilari, mutaxassislari

va boshqarma ofitserlari zudlik bilan voqea joylariga chiqib, ekstremal vaziyatga tushib qolgan insonlarga kerakli texnik va tibbiy yordam ko'rsatishgan. Tinchlik va urush davrida favqulodda vaziyatlar o'choqlarida qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish fuqaro muhofazasi tuzilmalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi.

1. Odamlarni qutqarish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish.

2. Yonginlar, falokatlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va kommunal energetika hamda texnologiya tarmoqlaridagi buzilgan joylarni bartaraf etish.

3. Iqtisodiyot ob'ektlarda bundan keyingi bo'ladigan tiklash ishlarini o'tkazish uchun sharoitlar yaratish. Qutqarish ishlarining mazmuni:

- tuzilmalarning harakat yo'nalishlari va ish uchastkalarini qidirish;
- tadbirlarni amalga oshirish uchastkalarida va ularga o'tish yollarida yonginning kengayishini oldini olish va uni o'chirish;
- buyumlar, qulagan va yonayotgan binolarda, gaz va tutun bosgan xonalardan shikastlanganlarni qidirish va olib chiqish;
- buzilgan, shikastlangan, ustini uyumlar bosib qolgan inshootlarni ochish va ulardagi odamlarni qutqarish;
- shakastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ularni davolash muassasalariga olib borish;
- odamlarni kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) bilan zararlangan xavfli joylardan, suv bosadigan zonalaridan xavfsiz joylarga olib chiqish. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bekami-ko'st bartarf etish maqsadida hamda qutqarish tadbirlarini mexanizatsiyalash uchun maxsus texnika, ob'ektlarda mavjud bo'lgan texnika, shuningdek yonginga qarshi maxsus texnikalardan keng ko'lamda foydalaniladi. Zararlanish o'chogida kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil etish va olib borish xususiyatlari (AES va kimyoviy ob'ektlarda).

KTZM (Kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda), radiatsiyaviy va boshqa zahharli moddalar bilan boglik favqulodda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimoli mavjud tashkilot, muassasa va

korxonalarda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur. - radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilganda fuqarolar olgan nurlanishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish yagona davlat tizimini yaratish;

- KTZM va radiatsiyaviy ta'sir tufayli fuqarolar sogg'ligiga zarar yetkazilishi xavfi yuqori bo'lgani uchun to'lanadigan tovon turlarini va miqdorini belgilab chiqish;

- ionlashtiruvchi nurlanish manbaalaridan foydalanish bilan boglik faoliyat turlarini belgilash;

- tibbiy profilaktika tadbirlarini yaxshi qo'lga qo'yish; radiatsiyaviy vaziyat va boshqa xavfli vaziyatlar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'grisida fuqarolarni xabardor qilish; fuqarolarga radiatsiyaviy xavfsizlik chora-tadbirlarini o'rgatish;

- radiatsiyaviy ifloslanish zonalarida fuqarolarni yashashiga doir alohida rejimlar joriy qilish;

- radiatsiyaviy avariya natijasida nurlanishga duchor bo'lgan fuqarolarga yordam ko'rsatish;

- radiatsiyaviy avariya yuzaga kelish xavfi bo'lganda tezkor chora-tadbirlarni tashkil etish va otkazish.

KTZM va radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash, xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish, mazkur tadbirlar samaradorligini tahlil etish chog'ida mahalliy davlat hokimiyat organlari, radiatsiyaviy xavfsizlik sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar tomonidan olib borilishi zarur.

Radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni oz ichiga oladi:

- atrof muhit radioaktiv ifloslanishining tavsifi;

- radiatsiyaviy xavfsizlik tadbirlarining hamda radiatsiyaviy xavfsizlik normalari va qoidalari hamda gigiena normativining bajarilishi tahlili;

- radiatsiyaviy avariya ehtimoli va ularning ko'lami;

- radiatsiyaviy avariylarni va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik darajasi;

- nurlanish dozalarining belgilab qo'yilgan asosiy chegaradan yuqori bo'lgan nurlanishga duchor bo'lgan shaxslar soni;

oziq-ovqat xom ashyosi, oziqovqat mahsulotlari, ichimlik suvi hamda ularni tayyorlash, saqlash, tashish jarayonida ularga yondosh bo'ladigan materiallar va buyumlar radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob berishi kerak.

Ob'ektlarda favqulodda vaziyat vujudga kelish xavfi borligi haqida signal olishi bilan ob'ektlar fuqaro muhofazasi boshliqlari tuzilmalarni yigish, ularni tayyorlik holatiga keltirishni amalga oshiradi va ularni shahardan tashqariga, oldindan tanlangan joylashish yeriga olib chiqib ketish haqida buyruq beradilar.

Bu yerda tuzilmalarning komandirlari shaxsiy tarkibining ob'ektda yoki boshqa ob'ektlarda o'zaro hamkorlik qilish sifatida qutkarish ishini va boshqa kechiktirib

bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish yuzasidan vazifalarni bajarishga tayyorligini ta'minlaydigan bir qancha tadbirlarni amalga oshirdilar. Favqulodda vaziyat sodir bo'lganligi haqidagi signalini olinishi bilan ob'ekt fuqaro muhofazasi boshligi buyrugiga asosan tuzilmalar joylashgan yerdan tuman fuqaro muhofazasi kuchlari umumiy kalonnasi tarkibida yoki mustaqil tarzda zararlangan o'choq yaqinidagi yigilish joyiga boradilar.

Bu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda shaxsan tuzilmalarning komandirlari rahbarlik qiladilar.

Ob'ekt fuqaro muhofazasi shtabi va xizmatlari razvetkadan olingan va kelib tushayotgan holat haqidagi ma'lumotlarni tahlil etadilar, qutqarish ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar hajmini hisob-kitob qiladilar. Ularni bajarish uchun zarur bo'lgan miqdordagi kuchlar va vositalarni belgilaydilar.

Tuzilmalarni ish uchastkalariga olib borishga bevosita rahbarlik qiladilar. Radio va signal vositalari yordamida doim aloqa bog'lab turadila va tuzilma hamda berilgan vositalarni boshqarishni amalga oshiradilar. Belgilangan tartib va xavfsizlik choralarini saqlaydilar.

Tuzilmalar komandirlariga vazifalarini topshirgandan keyin ob'ekt boshligi shtabning asosiy tarkibi va fuqaro muhofazasi xizmatlari boshliqlari bilan birgalikda ob'ektlar razvedkasi ortidan zararlanish o'chogiga boradi va bevosita ob'ektda boshqaruv punktni ishini yo'lga qo'yadi, shu yerdan turib tuzilmalar, tuman boshqaruv punktlari bilan aloqa bogg'lab turadi. Ob'ektga yetib kelgandan so'ng fuqaro muhofazasi boshligi razvedka ma'lumotlari va shaxsiy kuzatishlari buyicha ishlarni bajarishning izchilligini va eng maqsadga muvofiq usullarni, uyumlarda mashinalar o'tishi uchun joylarni ochishni, mexanizatsiya, yakka tartibdagi himoya vositalaridan foydalanish tartibini belgilaydi, tuzilmalarning vazifalariga aniqlik kiritadi, ishlarni olib borilishini kuzatadi.

Boshqarish ketma-ketligi va usullari vayronaliklarning, kommunal energetika va texnologiya tarmoqlaridagi, falokatlarining tusiga, yongin holatiga, radiatsiya darajasiga, joyning gazlar bilan ifloslanganiga yoki KTZM bilan zaharlanganiga, himoya vositalari va ulardagi odamlarning ahvoliga, zarur mexanizatsiya vositalarining mavjudligiga, o'tish joylarining holati va ishlarini olib borishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlaydi va ularga barham beradi. Qutqarish ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar bir vaqtda o'tkazilishi juda muhimdir.

Bu ishlarni tez va uyushqoqlik bilan o'tkazish zararlanish o'chogida bo'lgan odamlarning hayotini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Fuqaro muhofazasi tuzilmalaridan zarbaga uchragan o'choqlarda ularning ixtisosini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Tuzilmalardan ana shunday maqsadga muvofiq yuqori unumdorligi va ishlarni tez tugallanishini ta'minlashi mumkin. Zarbaga uchragan o'choqlarda ishlar asosiy qutkaruv ishlarini birinchi sutka oxirigacha tugallashini hisobga olgan holda uzluksiz ravishda kecha va kunduz olib borish kerak.

Qutqarish ishlarini va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borishning uzluksizligini ularning ikkinchi smenada olib borish bilan ta'minlanadi. Smenalardagi ishlarning

davomiyligi vaziyatdagi radiatsiya darajasi hududning KTZM bilan zaharlanishini, shuningdek tuzilmalar shaxsiy tarkibi jismoniy holatini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qutqarish ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlari avj oldiriladi va ular tugallanguncha olib boriladi. Jarohatlangan odamlarni izlash va qutqarish, qutqaruvchilarning ish uchastkasiga olib kelinishi bilan darhol boshlanadi. Tuzilmalarning shaxsiy tarkibi shakistlangan odamlarni qutqarish bilan birga ularga birinchi tezkor tibbiy yordamni ko'rsatishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tashkilot va korxonalarda, iqtisodiyot ob'ektlarida tashkil etilgan fuqaro muhofazasi tuzilmalarining tashkil etilishi, hozirgi iqlim o'zgarishi bilan bogliq hayotimizda juda katta o'rin tutadi.

Ob'ektlarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ro'y berguday bo'lsa, Qoraqalpoqiston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining tasarrufidagi qutqaruv xizmatlari shaxsiy tarkibi bir vaqtning o'zida bir necha hududlarda xarakat qila olmaydilar.

Shuning uchun ham mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilot, korxona, muassasalarda fuqaro muhofazasi tuzilmalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizomni hamda tuzilmalarni moddiy - texnik vositalar bilan ta'minlash (tabellashtirish) me'yorini tasdiqlash haqidagi 369-sonli qarorida shtatdan tashqari tuzilmalarni tuzish, kerakli asbob-anjob va shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlash to'g'risida batafsil bayon etilgan.

Ob'ektlarda tuziladigan tuzilmalarning vazifalari belgilangan 15 soatlik dastur asosida nazariy bilimlarini oshirish hamda bilim va knikmalarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda amalda tadbqiq etib, asosiy kuch yetib kelgunga qadar, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, moddiy tovar boyliklarni xavfsiz hududga olib chiqish, o'zini va o'zgalarni turli xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimovning 1996 yil 4 martdagi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risidagi PF-1378 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 y.)
3. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 26 dekabr kunidagi "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonuni. (195-sonli).
4. 2022 yil 17 avgust kunidagi. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi 790-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabr kunidagi Texnogen, tabiiy va ekologik tisdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida||gi 455 sonli Qarori.

6. O'zbekiston Respublkiasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 9 iyun kunidagi 184-sonli qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 iyun kunidagi O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizom hamda tuzilmalarni texnik vositalar bilan ta'minlash (tabellashtirish) me'yorini tasdiqlash haqidagi 369sonli qarori.